XALQ DEPUTATLARI TO‘RTKO‘L TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 4-mart VII-22-29-13-190-K/26 To‘rtko‘l tumani

2026-yilda To‘rtko‘l tumani bo‘yicha alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-sonli Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori bilan xalq deputatlari tuman Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun To‘rtko‘l tumani hududida alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman byudjetiga yo‘naltirilsin.

4. Tuman hokimining moliya iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari–Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (Z.Ismailov), tuman Soliq inspeksiyasi (J.Annayev) mazkur qarorni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini ta’minlash vazifasi tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Ismailov hamda qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Madraymov) zimmalariga yuklatilsin.

6. Tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (M.Bekchanova)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **ABDULLAYEV RAMONBERDI MADRAXIMOVICH**

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2026-yil 4-martdagi
VII-22-29-13-190-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalariga nisbatan kiritilayotgan oshiruvchi foizlar miqdorlari

so‘mda

T/r	Yig‘im turi	Yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish foizi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (oshirilgan miqdori)
			To‘rtko‘l tumanida
1.	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	20 foiz	360 000
2.	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	20 foiz	180 000